

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2023 №2

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**AXBOROTNOMASI**



**В Е С Т Н И К**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе

редакционно-издательского отдела  
Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста: О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском  
управлении печати и информации

Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом №  
201/3 от 30 декабря 2013года

реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии  
с прилагаемыми правилами, просим направлять

по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,

Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.

Контактный телефон: 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru

rio@tma.uz

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

Отпечатано на ризографе  
редакционно-издательского отдела ТМА.  
100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА № 2, 2023

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**

**Главный редактор**

проф. А.К. Шадманов

**Заместитель главного редактора**

проф. О.Р.Тешаев

**Ответственный секретарь**

проф. Ф.Х.Иноятова

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ**

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Татьяна Силина (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Людмила Зуева (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Саша Трескач (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

**Члены редакционноого совета**

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

---

Herald TMA №2, 2023

**EDITORIAL BOARD**

**Editor in chief**

prof. A.K. Shadmanov

**Deputy Chief Editor**

prof. O.R. Teshayev

**Responsible secretary**

prof. F.Kh. Inoyatova

**EDITORIAL TEAM**

academician Alyavi A.L.

prof. Bilalov E.N.

prof. Gadaev A.G.

prof. Jae Wook Choi (Korea)

academician Karimov Sh.I.

prof. Tatyana Silina (Ukraine)

academician Kurbanov R.D.

prof. Lyudmila Zueva (Russia)

prof. Metin Onerc (Turkey)

prof. Mee Yeun (Korea)

prof. Najmutdinova D.K.

prof. Salomova F.I.

prof. Sascha Treskatch (Germany)

prof. Shaykhova G.I.

**EDITORIAL COUNCIL**

DSc. Abdullaeva R.M.

prof. Akilov F.O. (Tashkent)

prof. Allaeva M.D. (Tashkent)

prof. Khamdamov B.Z. (Bukhara)

prof. Iriskulov B.U. (Tashkent)

prof. Karimov M.Sh. (Tashkent)

prof. Mamatkulov B.M. (Tashkent)

prof. Okhunov A.A. (Tashkent)

prof. Parpieva N.N. (Tashkent)

prof. Rakhimbaeva G.S. (Tashkent)

prof. Khamraev A.A. (Tashkent)

prof. Kholmatova B.T. (Tashkent)

prof. Shagizatova B.X. (Tashkent)

Journal edited and printed in the computer of Tashkent  
Medical Academy editorial department

Editorial board of Tashkent Medical Academy

Head of the department: M.N. Aslonov

Russian language editor: O.A. Kozlova

Uzbek language editor: M.G. Fayzieva

English language editor: A.X. Juraev

Corrector: Z.T. Alyusheva

Organizer: Tashkent Medical Academy

Publication registered in editorial and information  
department of Tashkent city

Registered certificate 02-00128

Journal approved and numbered under the order 201/3 from 30  
of December 2013 in Medical Sciences department of SUPREME

ATTESTATION COMMISSION

COMPLETED MANUSCRIPTS PLEASE SEND following address:

2-Farobiy street, 4 floor room 444. Administration building of TMA.  
Tashkent. 100109, Toshkent, ul. Farobi, 2, TMA bosh o'quv binosi,  
4-qavat, 444-xona.

Contact number: 71- 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru. rio@tma.uz

Format 60x84 1/8. Usl. printer. I. 9.75.

Listening means «Cambria».

Circulation 150.

Negotiable price

Printed in TMA editorial and publisher department  
risograph

2 Farobiy street, Tashkent, 100109.

СОДЕРЖАНИЕ	CONTENT	
ОБОЗРЫ	REVIEWS	
Акилов Х.А., Рустамов А.Э., Хаялиев Р.Я., Эшмуродова Д.Б. ХИРУРГИЧЕСКАЯ ТАКТИКА ПРИ РЕЦИДИВАХ ВЫПАДЕНИЯ ПРЯМОЙ КИШКИ	Akilov H.A., Rustamov A.E., Hayaliev R.Ya., Eshmurodova D.B. SURGICAL TACTICS FOR RECURRENT RECTAL PROLAPSE	9
Ахмедов Ш.М. ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИНГАЛЯЦИОННЫХ АНТИБАКТЕРИАЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ ПРИ РЕСПИРАТОРНЫХ ИНФЕКЦИЯХ	Akhmedov Sh.M. PROSPECTS FOR THE USE OF INHALED ANTIBACTERIAL DRUGS IN RESPIRATORY INFECTIONS	12
Болтаев М.И., Тилляшайхов М.Н., Мирхамидов Д.Х. СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ЭПИДЕМИОЛОГИИ И ФАКТОРЫ РИСКА РАЗВИТИЯ РАКА МОЧЕВОГО ПУЗЫРЯ	Boltayev M.I., Tillyashaykhov M.N., Mirkhamidov D.Kh. MODERN ASPECTS OF EPIDEMIOLOGY AND RISK FACTORS IN BLADDER CANCER	17
Ганиева С.К. ПРОБИОТИКИ В ЛЕЧЕНИИ ДИАРЕЙНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ДЕТЕЙ	Ganieva S.K. PROBIOTICS IN THE TREATMENT OF DIARRHEAL DISEASES IN CHILDREN	20
Гиясов Ш.И., Нуриддинов Х.З., Абдужабборова У.М., Туйгунов Л.Х., Синдоров Ж.З., Рахимжонов М.А., Бахромов У.Ф., Мухтаров Ш.Т., Акилов Ф.А., Di Tie, Yili Liu, Chunming Liu, Dongwei Xue Jia Liu, Fengming Dong, Minqiang Gao, Guangzong Gao. МОЧЕТОЧНИКОВЫЕ СТЕНТЫ БУДУЩЕГО: КАКИМИ СВОЙСТВАМИ ОНИ ДОЛЖНЫ ОБЛАДАТЬ?	Giyasov Sh.I., Nuriddinov Kh.Z., Abdujabborova U.M., Tuigunov L.Kh., Sindorov Zh.Z., Rakhimjonov M.A., Bakhromov U.F., Mukhtarov Sh.T., Akilov F.A., Di Tie, Yili Liu, Chunming Liu, Dongwei Xue, Jia Liu, Fengming Dong, <sup>3</sup> Minqiang Gao, Guangzong Gao. URETERAL STENTS OF THE FUTURE: WHAT PROPERTIES SHOULD THEY HAVE?	25
Djurayeva N.K. COVID-19 INFEKSIYASI BILAN KURASHISHDA REABILITASION TADBIRLAR OLIV BORISHNI TAKOMILLASHTIRISH	Djurayeva N.K. IMPROVING REHABILITATION ACTIVITIES IN THE FIGHT AGAINST COVID-19 INFECTION	29
Мирзаева А.Х., Сайдалиходжаева С.З., Фахриддинов Р.Ф. ОСОБЕННОСТИ ПАТОГЕНЕЗА МАСКИРОВАННОЙ ДЕПРЕССИИ У БОЛЬНЫХ COVID-19 И ВОЗМОЖНОСТИ КОРРЕКЦИИ НАРУШЕНИЙ	Mirzayeva A.X., Saydalikhodjayeva S.Z., Fakhriddinov R.F. FEATURES OF THE PATHOGENESIS OF MASKED DEPRESSION IN COVID-19 PATIENTS AND THE POSSIBILITY OF CORRECTION OF DISORDERS	33
Мусаев Х.А., Ахмедова Д.Б. ГИПОТЕРМИЯ – АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЫ	Musaev Kh.A., Akhmedova D.B. HYPOTHERMIA IS AN ACTUAL PROBLEM OF MODERN MEDICINE	36
Рахимова Д.Ж., Исломов К.А., Мусурманов Ф.И. ЗНАЧЕНИЕ ПОЛНОЦЕННОГО ПИТАНИЯ ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ И ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	Rakhimova D.Zh., Islomov K.A., Musurmanov F.I. THE IMPORTANCE OF GOOD NUTRITION FOR THE HEALTH AND PHYSICAL DEVELOPMENT OF SCHOOL-AGE CHILDREN	39
Рузикулов М.М., Кариев Г.М., Ташматов Ш.Н. ДОЛИХОЭКТАТИЧЕСКИЕ И ФУЗИФОРМНЫЕ АНЕВРИЗМЫ СОСУДОВ ГОЛОВНОГО МОЗГА: ПАТОГЕНЕЗ, КЛИНИКА, МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ	Ruzikulov M.M., Kariev G.M., Tashmatov Sh.N. ANEURYSMS OF DOLICHOECTATIC AND FUSIFORM CEREBRAL VESSELS: PATHOGENESIS, CLINIC, METHODS OF TREATMENT	42
Таджиева Н.У., Самибоева У.Х., Имамова И.А., Каримова М.Т., Магзумов Х.Б., Шодмонов И.С. БАКТЕРИАЛЬНЫЕ ПАТОГЕНЫ У БОЛЬНЫХ С НОВОЙ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИЕЙ COVID-19, ОСЛОЖНЕННОЙ БАКТЕРИАЛЬНОЙ ПНЕВМОНИЕЙ	Tajjeva N.U., Samibaeva U.Kh., Imamova I.A., Karimova M.T., Magzumov H.B., Shodmonov I.S. BACTERIAL PATHOGENS IN PATIENTS WITH NOVEL CORONAVIRUS INFECTION COVID-19 COMPLICATED BY BACTERIAL PNEUMONIA	47
Турғунов С.Т., Камиллов Ж.А. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА МАҚТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНИШИДАГИ БУЗИЛИШЛАРНИ ЭРТА АНИҚЛАШ УЧУН ЯНГИ ҲУДУДИЙ СТАНДАРТЛАР АСОСИДА МОБИЛ ИЛОВАНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ	Turgunov S.T., PhD Kamilov J.A. DEVELOPMENT OF A MOBILE APPLICATION BASED ON REGIONAL STANDARDS FOR EARLY DETECTION OF DEFECTS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN	52
Usmanxodjayeva A.A., Adilov S. Q., Isomiddinov Z.J. COVID-19 O'TKAZGANDAN SO'NG RIVOJLANGAN SON SUYAGI BOSHCHASI OSTEONEKROZI ERTA BOSQICHLARINING JISMONIY REABILITATSIYASI	Usmankhodjaeva A.A., Adilov S. Q., Isomiddinov Z.J. PHYSICAL REHABILITATION OF PATIENTS AT THE EARLY STAGE OF OSTEO NECROSIS OF THE FEMORAL HEAD AFTER SUFFERING COVID-19	55

## COVID-19 INFEKSIYASI BILAN KURASHISHDA REABILITACION TADBIRLAR OLIB BORISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Djurayeva N.K.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕАБИЛИТАЦИОННЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В БОРЬБЕ С ИНФЕКЦИЕЙ COVID-19

Джураева Н.К.

## IMPROVING REHABILITATION ACTIVITIES IN THE FIGHT AGAINST COVID-19 INFECTION

Djurayeva N.K.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

*Проанализированы результаты исследований, посвященных COVID-19, с которой человечество впервые столкнулось в новейшей истории. Гарантировать, что новый тип (типы) коронавируса и новая инфекция (обезьянья оспа) обойдут стороной хотя одну страну мира, невозможно. Необходимо анализировать и оценивать деятельность медицинского персонала по своевременной реабилитации больных, инфицированных COVID-19, проводить научные исследования и давать рекомендации по разработке научно обоснованных мероприятий.*

**Ключевые слова:** COVID-19, пандемия, реабилитация, медицинский персонал.

*The review article analyzes the results of studies; For the first time in modern history, humanity is faced with a global disease. It is safe to say that it is impossible to guarantee that a new type (types) of coronavirus and a new infection (monkey pox) will not bypass any country in the world. It is advisable to analyze and evaluate the activities of nurses for the timely rehabilitation of patients infected with COVID-19 by medical personnel and conduct scientific research and make recommendations on the development of evidence-based measures based on their results.*

**Key words:** COVID-19, rehabilitation, pandemic, medical staff.

Yaqin tarixda birinchi marotaba insoniyat global kasallik bilan yuzlashmoqda. Ishonch bilan ayta olamizki, koronavirusning yangi turi ( turlari) va yangi infektsiya (maymun chechagi) dunyoning biron bir mamlakatini chetlab o'tmasligini kafolat berib bo'lmaydi. Bu, shubhasiz, insoniyat uchun uzoq vaqtga hatto o'nlab yillarga tatiydigan eng qiyin sinovlardan biri bo'lishi mumkin [10].

Ushbu kasallikning tarqalishi bizning aholimizni yanada tibbiy madaniyatining rivojlantirish kerakligini har qancha va doimiy ommaviy axborot vositalaridan tortib barcha sohalardan tortib, respublikamizda uzluksiz olib borilayotgan "sog'lom turmush tarzini islox etish" uchun chiqarilayotgan ko'plab loyixalarning bo'lishga qaramasdan amaliy natija etarli emasligini (ayniqsa kasallik ilk tarqaganida kezlarda) isbotladi.

Ammo insoniyat o'z tarixi davomida turli xil epidemiyalarga duch kelgan. Avvaldan vabo, tif kabi ko'plab epidemiyalarning dahshatli oqibatlarini haqida bilamiz. Bugungi kunda dunyoda transport tizimining rivojlanishi va transportning arzonlashishi (chegirmalar) millionlab odamlar har kuni uzoq masofalarga sayohat qilishl imkoniyatining paydo bo'lishi, mamlakatlar va qit'alar o'rtasida o'n minglab kemalar va samolyotlar qatnovini ko'payishi. Bundan tashqari, dunyo aholisining zichligi misli ko'rilmagan ko'rsatkichlarga yetdi. Yigirma birinchi asrning boshlariga kelib, ko'plab mamlakatlar aholining haddan tashqari ko'payib ketishi bularning barchasi, afsuski, yuqumli kasalliklarning tez va ommaviy tarqalishi uchun ideal sharoitlarni yaratadi. Buning uchun 20 yoki 30 million aholiga ega bo'lgan megapolislarda ko'plab savdo-sotiq yoki ko'ngilochar joylarga qancha odam tashrif buyurishini tasavvur qilish kifoya.

Dunyoda covid-19 pandemiyasi boshlanganiga ikki yildan oshdi. Ayni paytda insoniyat bu kasallikni yengish va uni jilovlash uchun barcha choralarni ishga solmoqda. Biroq virus ortga chekinayotgani yo'q. Aksincha, so'nggi kunlarda dunyoning qator mamlakatlarida ushbu infektsiya bilan bog'liq vaziyat yana murakkablashyapti [11]. AQSh, Germaniya, Braziliya, Italiya, Tayvan va Ispaniya kabi davlatlarda kasallanishlar soni kundan kunga oshib borayotgani ko'pchilikni tashvishga solayapti. Statistika raqamlarini tahlil qilsak, yurtimizda ham keyingi haftalarda Covid-19 ga chalinish holatlari biroz ortganini ko'rish mumkin.

Tabiiyki, mamlakatimizdagi epidemik o'zgarish, eng avvalo, Zangiota 1 va 2-son yuqumli kasalliklar shifoxonalari faoliyatida aks etadi. O'tgan yilning shu davri bilan taqqoslasak, bemorlar soni juda past, — deydi Zangiota 1-son yuqumli kasalliklar shifoxonasi direktori o'rinbosari Hilola Alimova: "Ayni paytda muassasamizga murojaat qilayotgan va gospitalizatsiyaga ko'rsatma bo'lgan bemorlarning barchasi shifoxonaga yotqizilib, ularga zarur tibbiy yordam ko'rsatilmoqda. Markazimiz yetarli darajada tibbiy anjom va dori vositalari bilan ta'minlangan" 2021yil ko'rib turganimizdek 2020 yildagi vaziyatga qaraganda ancha takomillashdi va Zangiota 1 va 2-son yuqumli kasalliklar shifoxonasida bemorlar sog'ayishi uchun qullayliklar yaratilmoqda [11].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti rahbari Tedros Gebreesus dunyoda pandemiyaning yangi to'liqini boshlanishidan jiddiy xavotirda. Uning ta'kidlashicha, agar koronavirus qayta avj olsa, insoniyat kasallikning yangi to'liqiniga tayyor emas. "Biz hozir pandemiyaning o'rtasidamiz, — deydi JSST bosh direktori. — Agar yangi mutatsiya paydo bo'lsa, bunga har tomonlama hozir bo'lishimiz shart!" Shu bois T. Gebreesus barcha mam-



lakatlarni covid-19 ga qarshi kurashish borasidagi tavsiyalarga qat'iy amal qilishga chaqirdi. Xususan, kasallikka qarshi emlash ko'rsatkichlarini oshirish zarur. Bu pandemiya yangi to'liqini boshlanishining oldini olishga xizmat qiladi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ayni paytda "omikron" shtammining VA.5 varianti insoniyat salomatligiga ko'proq xavf solib turibdi. Ushbu mutatsiya ancha yuqumli va og'ir asoratlarni keltirib chiqarishi bilan ajralib turadi. Jumladan, u avvalo, 60-65 yoshdan oshgan, emlanmagan aholi qatlami, qolaversa, ortiqcha vaznga ega va qandli diabet, buyrak yetshmovchiligi kabi surunkali kasalliklarga chalinganlar uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin covid-19 Mana 2019 yildan buyon covid-19 pandemiyasi sharoitida respublikamizda ushbu kasallikning etiopatogenezi, klinik belgilari, atipik holatlari, davolash usullari, vaktisinalar ishlab chiqish bo'yicha tibbiyot hodimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [5,6,20,24,27,26].

Kasallik nafas olish yo'llari infeksiyasi bilan tavsiflanib, uning alomatlari oddiy shamollash/grippga o'xshash kasallikdan boshlab sog'liqqa jiddiy putur yetkazuvchi tibbiy kasallik alomatlarini o'z ichiga oladi. 2020 yil 13 iyun kuni Samarqand davlat tibbiyot instituti tashabbusi bilan «Covid-19 bemorlarini reabilitatsiya qilishda ko'p yo'nalishli yondashuv» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferentsiyasida reabilitatsiya zarur ekanligi takidlandi, avvalo tibbiy reabilitatsiya ko'p tarmoqli soha bo'lib, pedagogik, psixologik va boshqa bir qancha faoliyat turlari uyg'unligiga ehtiyoj sezadi. Bu esa jahon tibbiyot olimlari va mutaxassislarining bir maqsad yo'lida birlashish, o'zaro tajriba almashib faoliyat yuritishini taqozo etadi. Ma'lumki tibbiy reabilitatsiya masalasi bugungi kunda butun dunyo tibbiyoti zimmasiga jiddiy vazifalarni qo'ymoqda. Shulardan biri turli sohalar mutaxassislari ishini muvofiqlashtirilishi masalasi. Kasallikni boshidan kechirgan bemorlarda uyqu buzilishi, depressiya, qon-tomir va o'pkadagi o'zgarishlar hali bir yoki besh, o'n yil ichida turlicha ko'rinishda namoyon bo'lib turishi ham tahmin qilinmoqda. Koronavirus infeksiyasini davolashdan so'ng shifoxonadan chiqarilgan bemor o'zini mutlaqo sog'lom his qilmasligi tabiiy holat. Hatto yengil shaklda kasal bo'lganlar ham kamida psixologik reabilitatsiyaga muhtoj bo'ladilar. Kasallikdan so'ng barcha bemorlarda kuchsizlik, bosh og'rig'i, nafas qisishi, ortiqcha terlash va tushkun kayfiyatlar saqlanib qoladi. Mutaxassislar ushbu simptom majmuasiga "Kovoiddan keyingi sindrom" shartli nomini bermoqdalar. Koronavirusdan keyingi reabilitatsiya kasallikning og'irligidan qat'i nazar, kasal bo'lgan har bir kishi uchun zarur. Koronavirus pnevmoniyasining o'rtacha va og'ir shakllariga uchragan bemorlar majburiy kompleks reabilitatsiyaga muhtoj. O'pka, yurak, buyrak va qonning surunkali kasalliklariga chalingan odamlarda kasallik ko'pincha og'irroq kechib, tiklanmas o'zgarishlar yurak mushak sohasiga jiddiy ta'sir etishi mumkin[1,3]. Ma'lum qilinishicha, izlanish davomida, koronavirusni yenggan 1837 ishtirokchilarning 98 foizi xastalikdan tuzalgandan bir necha oy o'tgach, zaiflik, charchoq, mushaklarda og'riq paydo bo'lganligidan shikoyat qilishgan. Shuningdek, ishtirokchilarning 88 foizga yaqini uyqu bilan bog'liq, 87 foizi turli og'riqlar, yana 88 foizi

esa mehnat faolligi pasayganligini ma'lum qilishgan. 86 foiz qatnashchilar esa xastalikka chalinmaslaridan oldin sog'liqlarida umuman muammolar bo'lmaganligini ta'kidlashgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu ma'lumotlar Covid-19 ni yengil o'tkazgan bemorlarning reabilitatsiyasi yetarli emasligini ko'rsatadi. Zero, koronavirusni boshdan o'tkazganlar olti oy davomida reabilitatsiyadan o'tishlari kerak. Ammo ayni paytdagi sog'liqni saqlash tizimidagi bosim tufayli buni amalga oshirish murakkab bo'lmoqda. Shu sababli olimlar koronavirusdan omon qolgan va to'liq tuzalmagan, ya'ni uning ta'sirini 12 haftadan ko'proq vaqt davomida boshdan kechirgan odamlar surunkali kasallarga aylanishlari mumkin deb taxmin qilishmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bemorlarni davolashda tibbiy reabilitatsiya muhimligiga urg'u berib, asosan nafas olish gimnastikasiga e'tibor qaratish lozimligini, bemorni joylashtirida o'rnini o'zgartirib turishga nafas olish mushaklarini rag'batlantirish uchun maxsus fizioterapiya talab etilishini, muzokaralarda yangi koronavirus oqibatida yuzaga kelgan infeksiya tashxisi, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam, reabilitatsiya kabi dolzarb mavzularga keng o'rin berildi. Yangi koronavirus infeksiyasi uchun tibbiy reabilitatsiya (covid 19) borasidagi takliflar berildi [6,12,28].

Galdagi vazifa konferentsiyada ko'tarilgan muhokamalar, yangi ilmiy qarashlarni amaliyotga ko'chirishdan iborat bo'lishi aytiladi. Klinik tavsiyalarda pnevmoniya bilan og'rikan bemorlarni reabilitatsiya qilish masalasi ko'yildi. Mutaxassislarining fikricha bemorning shaxsiy fazilatlarini hisobga olgan holda (psixologik holat, tolerantlik darajasiga jismoniy faoliyat, ijtimoiy sharoitlar); reabilitatsiya natijalarini bashorat qilish mumkin ekan. Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligi mamlakatdagi 8 sanatoriy-kurort tashkilotlarida tibbiyot xodimlarini to'liq tibbiy o'pka reabilitatsiyasi bilan tayyorlashga kirishganligini aytdi. Kovid asoratlarni davolashda Sanatoriylardagi tibbiy reabilitatsiya usullari birinchi o'ringa chiqishi ilmiy jihatdan asoslab berildi [8,17,18].

Bu usullar takomillashtirilgach bemor organizmidagi to'qimalarning nafas olishi yengillashib, tanada kasallikka qarshi kurashuvchanlik oshib boradi. Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi, Professor, MD Razumov A.N. tibbiy reabilitatsiya takliflarida pnevmoniyaning uzoq davom etishi sharoitida ambulator davolash usullari va sindromni pasaytirish yo'llari borasidagi ilmiy qarashlar aks etdi. Rossiyalik mutaxassis odatiy iqlim sanatoriyalari sharoitida organizmni fiziologik zaxiralar bilan boyitishning uslublariga urg'u berdi. Uning fikricha, jismoniy davolash usullari har doim muhimligicha qolaveradi. Rossiya tibbiyot fanlari Akademiyasining akademigi V.M. Bogolyubov esa bemorlarni o'rmon sharoitidagi sayohatlarga yuborish yo'li bilan iqlimiy kurortlarda tibbiy reabilitatsiyani mustahkamlash taklifini berdi [23]. O'zbekiston, Italiya, Belorus singari yetakchi reabilitatsiya markazlari olimlarining ishtirokida konferentsiya tashkil etilishi ahamiyatli. U yerda "Reabilitatsiya jarayoni shu tariqa ko'plab soha mutaxassislarining ko'nikma va bilimlarini sinovdan o'tkazadi" degan g'oyani ilgari surish barobarida - ushbu tadbirning maqsadi pandemiya sharoitida olimlar va mutaxassislarini yagona

axborot makonida birlashtirib, o'zaro tajriba almashishlari uchun imkoniyat berdi. Konferentsiya davomida Yevropa hamda Rossiyaning nufuzli klinikalari, maxsus reoblitatsiya markazlari mutaxassisleri tomonidan sohaga doir ilg'or tajribalar, innovatsion ilmiy ishlanmalar taqdim etilishi borasidagi mulohazalar eshitildi. Aslini olganda, pandemiyani jilovlashda ko'rilayotgan barcha choralar jahon tajribasi, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va eng asosiysi, shu vaqtgacha koronavirusga qarshi kurash jarayonida to'plangan milliy tajribaga tayangan holda amalga oshirildi va tibbiyot olimlarini jamladi [2,4,5].

Buyuk Britaniyada 2021-yil mart oyidan ko'ngillilar orasida SARS-CoV-2 koronavirusining organizmga ta'sirini o'rganish dasturi — «Human Challenge Program» doirasidagi tibbiy tadqiqotlar boshlandi. Hukumat ushbu tadqiqot ko'ngillilarga SARS-CoV-2 koronavirusi ataylab yuqtirilgan dunyodagi birinchi izlanish ekanligini ta'kidlagan. Uning maqsadi covid-19ga qarshi vaksinalar va ushbu kasallikni davolash usullarini takomillashtirish hamda rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Birinchi ko'ngillilar guruhi bilan koronavirus xususiyatlarini o'rganayotgan Londonning «Royal Free Hospital» kasalxonasi mutaxassisleri ish olib borgan. Tadqiqot ishtirokchilariga koronavirus xavfsiz hamda doimiy nazorat ostida bo'ladigan muhitda yuqtirildi. Ishtirokchilar shifokorlar va mutaxassislarning uzluksiz kuzatuviga olingan. Izlanish davomida inson immunitet tizimining Sars-CoV-2 virusiga qanday javob qaytarishini va virus yuqtirilgan bemor uning zarralarini qanday atrofga tarqatishini aniqlash ko'zlangan. Sog'lom ko'ngillilar orasida bu kabi tadqiqot gripp va bezgakka qarshi vaksinalarni ishlab chiqishda ham o'tkazilgan. Ammo ushbu tadqiqotdan farqli tomoni shundaki, ushbu sinovlarning ishtirokchilari dastlab tegishli vaksina bilan emlangan. O'tgan vaqt davomida aholidan kelayotgan koronavirus bilan bog'liq murojaatlar bilan ishlaydigan mobil guruhlar, kasallikka chalinganlarni saralash va ularni tibbiy holatiga ko'ra taqsimlashga qaratilgan markazlar, hamda kasallikni davolash bilan shug'ullanuvchi shifoxonalarning uzluksiz tizimi yaratilganini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Ammo kasallik tarqalishining yanada avj olishi mumkinligini hisobga olib, a'zo davlatlar kasallikning yangi hududlarga kirib borishining oldini olish choralari yoki covid-19 virusi allaqachon tarqalayotgan hududlarda infeksiyaning odamdan odamga yuqishini kamaytirish imkoniyatlarini ko'rib chiqdilar. Ushbu maqsadlarga erishish uchun jamiyat salomatligi tizimi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar sirasiga kiradigan karantinni tashkil etish zarur. Unda kasallik alomatlarini kuzatib borish va kasallik holatlarini erta aniqlashni ta'minlash maqsadida virus ta'siriga uchragan bo'lishi mumkin bo'lgan sog'lom fuqarolarning harakatlanishini cheklash yoki ularni qolgan aholidan ajratishdan iborat bo'lishi aytiladi [8,20,29].

Karantinga olish kasal bo'lmagan, ammo infeksiyon agent yoki kasallik qo'zg'atuvchisining ta'siriga uchraganligi gumon qilingan odamlarda kasallik alomatlarini kuzatish va kasallik yuqqanligi holatlarini erta aniqlashni ta'minlash maqsadida atrofda odamlardan ajratish yoki faoliyatini cheklash demakdir. Albatta bu jaray-

onga barcha tibbiyot xodimlari shifokorlarlar, hamshiralalar, kichik tibbiyot xodimlari, milliy gvardiya hodimlari, ichki ishlar, milliy xavfsizlik xodimlari jalb qilindi. 2020 yilning mart-aprel oylarida yurtimizda karantin qoidalari kuchaytirilib, barcha ommaviy axborot vositalari orqali kasallikning kechishi, ilk belgilari, oldini olish chora tadbirlari to'g'risida videoroliklar uzluksiz taqdim etib borildi. Undan tashqari kasallikning kechishi kunlik kasallanganlar soni, o'lim ko'rsatkichlari haqida ijtimoiy tarmoqlardan tashqari oynai jahon orqali har kuni ommaga yetkazib turildi. Bemorlarni, shuningdek, aholini kasallik yuzasidan qiziqtirgan savollariga sohaning yetuk mutaxassisleri javob berib borishdi.

Albatta bu jarayonda barcha tibbiyot xodimlari faol ishtirok etishdi. Bu jarayonda hamshiralarning ham roli muxim bu xaqda: Gellap nomidagi amerika tadqiqot institudidagi olimlar fikriga ko'ra hamshira- Insonlar ishona oladigan mutaxassislardan biri hisoblanadi. Hamshiralalar faoliyatini takomillashtirish bemor parvarishini yaxshilash bemorlarning tezroq sog'ayishini taminlaydi. Kasallikning boshidan o'tkazgan bemorlar yurak qon-tomir kasalliklari borlari reabilitatsiya o'tashga muxtoj bo'ladilar va bu jarayonga jiddiy yondoshmasliklari oqibatida yurak qon-tomir kasalliklari sabab o'lim ko'rsatkichlari ham oshdi. Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda jismoniy faollikni susayishi, ruhiy tushkunlikka tushib qolish hollari qayd etilishi va ijtimoiy holatning salbiy ta'siri oqibatida hayot sifat ko'rsatkichi yomonlashad [9]. Mana shu holatlarda mazkur sohada kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi zamon talablariga javob bermaydi, buning oqibatida tibbiyot muassasalarida hamshiralalar faoliyati qoniqarsiz ahvolda qolmoqda, aslida dori darmon bilan bir qatorda bemorga hamshira tomonidan o'z vaqtida ko'rsatilgan g'amxo'rlik bemorning tezda sog'ayishini taminlaydi. Masalan, tekshiruvlar natijasiga ko'ra koronavirus infeksiyasi eng keng tarqalgan klinik ko'rinishi ikki tomonlama pnevmoniya bo'lib, bemorlarning 3-4 foizida o'tkir respirator distress sindromi qayd etilgan. Pnevmoniya bilan bemorlarda ventilyatsiya-perfuzion buzilishlar, skelet mushaklarining zaifligi rivojlanadi. Virusli pnevmoniya bilan og'rikan bemorlarni tiklash uchun o'pka reabilitatsiyasi kerak va hamshiralik parvarishi muhim. Bir qancha olimlar o'pkada qon aylanishini, ventilyatsiya-perfuzion munosabatlarni yaxshilash va skelet mushaklari ishini tiklashga qaratilgan o'pka reabilitatsiyasi usullarini taklif etishdi va o'z maqolalarida keltirilib o'tishgan [18,21,23].

Yana bir guruh olimlarning tadqiqot natijasiga ko'ra: Kognitiv faoliyati buzilgan bemorlarni covid-19 kasalligidan keyin reabilitatsiya qilish muxim ekanini ko'rsatib o'tdilar: covid-19 bilan bog'liq kognitiv buzilishlar uchragan bemorlar reabilitatsiya zarur bo'lganda kimga va qachon murojaat qilish kerakligini bilish bemorlarga ta'lim va axborot resurslari taqdim etilishini ta'minlash va ularning oilalari bemorlarga va ularning oilalariga yuzaga kelgan muammolarni engishda yordam berish uchun strategiyalarni taklif qilishdi bu erda ham hamshira ko'magi muhim [17,18,20,21].

Xozirgi xulosalardan yana biri pandemiya butun dunyoda tibbiyot xodimlarini birlashtirganini va ayni vaqtda yetuk mutaxassislar, olimlar birlashib kasallikka qarshi kurashish bo'yicha va vaktinsatsiya ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun o'z tavsiyalarini berib borishmoqda.

Covid-19 bilan kasallangan bemorlarni davolash va kasallikning oldini olish, bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va davom etmoqda [18,19,21,22].

Jumladan Samarali reabilitatsiya texnologiyalarining ishlab chiqish, kalit so'zlarni taklif etishdi: («pnevmoniya», «surunkali charchoq sindromi», «reabilitatsiya», «fizioterapiya», «pnevmoniya», «surunkali charchoq sindromi» kabi kalit so'zlar yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni (rct) qidirishni o'z ichiga oladi. «reabilitatsiya», «fizika terapiyasi») elektron ma'lumotlar bazalarida (pedro, pubmed, embase, elibrary), tizimli ko'rib chiqish ma'lumotlar bazalarida (rs) (cochrane library, dare), boshqa klinik ko'rsatmalarning xalqaro ma'lumotlar bazalarida (ngc, gergis, nzgg, nice) ) keyin nashriyotlarning veb-saytlarida to'liq matnli maqolalarni qidirish, shuningdek, 2015 yildan 2020 yil aprelegacha bo'lgan davrda jurnallarda qo'lda qidirish. Ma'lumotlarni jamlab tavsia ishlab chiqish, izlanish davomida, koronavirusni yenggan 1837 ishtirokchilarning 98 foizi xastalikdan tuzalgandan bir necha oy o'tgach, zaiflik, charchoq, mushaklarda og'riq paydo bo'lganligidan shikoyat qilishgan.

Tavsiyalarni ishlab chiqishda olimlar asosan xorijiy va mahalliy SR ma'lumotlaridan, RCTlarning meta-tahlillaridan, shuningdek, PEDro shkalasi bo'yicha kamida 10 balldan 5 balldan baholangan, dalillar darajasining 10 parametrini o'z ichiga olgan individual RCT ma'lumotlaridan foydalandilar yana randomizatsiya, qiyosiy tabiat tadqiqotlari, so'nggi nuqtalar bo'yicha baholash, usullarini ham ishlatishdi[13]. Reabilitatsiya dasturlarini masofadan yetkaziladigan texnologiyalar yordamida qo'llashdagi so'nggi yutuqlar reabilitatsiya xizmati qamrovini kengaytirishi mumkinligi isbotlandi [16]. O'pka kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni uyda reabilitatsiya qilish dasturlarining intensivligi, rioya etilishi va xavfsizligi bilan bog'liq muammolar yaqinda o'tkazilgan klinik sinovlarda o'rganildi va ularni kengaytirish va amalga oshirish bo'yicha yanada kattaroq tadqiqotlar olib borilmoqda [27]. Covid-19 pandemiyasi sharoitida turli mamlakatlar tadqiqotchilari telekonsultatsiya va telereabilitatsiya texnologiyalaridan foydalanishni qat'iy tavsiya qilmoqdalar [21,24]. Bundan tashqari, reabilitatsiya va jismoniy faollik dasturlarini masofaviy yetkazib berish ushbu ijtimoiy uzoqlashish va izolyatsiya davrida aholini, ayniqsa aholining eng zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning «ideal» modelidir, covid-19 koronavirus infeksiyasi bilan bog'liq pnevmoniya bilan og'rikan bemorlarni tibbiy reabilitatsiya qilish dasturlari asosini tashkil etuvchi jismoniy usullar va mashqlar keltirilgan. Ular asosiy dori terapiyasini kuchaytirishning qo'shimcha komponenti bo'lib, tibbiy reabilitatsiyaning II va III bosqichlarida ushbu kasalliklar uchun klinik tavsiyalar va tibbiy yordam standartlariga muvofiq ushbu usullar va texnologiyalardan foydalanishga qarshi ko'rsatmalar bo'lmaganda samarali bo'lishi mumkin[14].

Bunday bemorlarni tibbiy reabilitatsiya qilish samaradorligining mezonini tashqi nafas olish funksiyasini, bemorlarning psixo-emotsional va immun holatini tiklashdir. Tibbiy reabilitatsiya bo'yicha o'z vaqtida va etarli darajada ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatish sog'lig'ini saqlash, yangi covid-19 koronavirus infeksiyasi bilan bog'liq pnevmoniya bilan og'rikan bemorlarda nogironlik va o'limni kamaytirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biz nima demoqchimiz bu maqolada, olib borilgan tadqiqotlarning taxlili shuni ko'rsatdiki; covid-19 bilan kasallangan bemorlarni mahalliy sanatoriylarda mamlakatning sanatoriy-kurort muassasalaridan foydalanish rolini oshirish, tibbiy reabilitatsiyaning II bosqichiga o'tkazish, shifoxonalarning ixtisoslashtirilgan bo'limlariga kovid bilan kasallangan bemorlar reabilitatsiyasini tushirish va barqarorlashtirgandan keyin amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir[7]. III bosqich tibbiy reabilitatsiya uchun iqlimiy-davolash kurortlarining holati, agar kerak bo'lsa; telekommunikatsiya texnologiyalaridan, bemorlarning ko'proq qismiga yordam beradigan telereabilitatsiya dasturlaridan, shu jumladan covid-19 pandemiyasi davrida ochilgan ixtisoslashtirilgan telemeditsina markazlari imkoniyatlaridan faol foydalanish holda mamlakat aholisi salomatligini faol tiklashga sa'y-harakatlarni jamlash va shu o'rinda hamshiralarni bemor parvarishida va reabilitatsiyasidagi ulushini oshirish borasida ilmiy maqolalar va tavsiyalar o'zbek tilida ishlab chiqilishi va Covid-19 infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar reabilitatsiyasini o'z vaqtida o'tkazish va uzluksizligini taminlashda hamshiralar faoliyatini tahlil qilish, baholash, natijasida ilmiy asoslangan choralar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiq.

#### Adabiyotlar ro'yxati bilan tahririyatda tanishishingiz mumkin

#### COVID-19 INFEKSIYASI BILAN KURASHISHDA REABILITATION TADBIRLAR OLIB BORISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Djurayeva N.K.

*Ushbu maqolada insoniyat yaqin tarixda birinchi marta duch kelgan covid-19 tadqiqotlarini o'rgandik. Koronavirusning yangi turi (turlari) va yangi infeksiya (maymunchechak) xeh bir davlatni chetlab o'tib ketmayotganini guvohi bo'layapmiz. Tibbiy xodimlarning COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni o'z vaqtida reabilitatsiya qilish bo'yicha faoliyatini tahlil qilish va baholash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy asoslangan tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berish kerak oldimizdagi muxim vazifa xsoblanadi biz maqolada ayni vaqtgacha olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qildik.*

**Kalit so'zlar:** covid-19, pandemiya, reabilitatsiya, tibbiyot xodimlari.

